

## FALSAFIY ANTROPOLOGIYA. INSON FALSAFASI

Rejabaliyeva Madinaxon Tursunboy qizi

Madaminova Sevaraxon Murodiljon qizi

Sayfutdinova Yorqinoy Yasharbek qizi

*Andijon Davlat Pedagogika Instituti*

*Tabiiy fanlar fakulteti biologiya yo'nalishi 101-guruh talabalari*

**Annotatsiya:** *Inson avvalo tiriklikning eng oily mo'jizasi, boshqa jonzotlardan ajralib turuvchi ijtimoiy mavjudot sifatida, tabiiy-tarixiy qadriyatdir. Falsafada inson muammosi bosh muammo ekanligiga shubha yo'q. Ushbu tezisdan inson tushunchasi, insonning paydo bo'lishidagi nazariyalar va falsafa tarixida inson muammosi haqida bayon etilgan.*

**Abstract:** *First of all, man is a natural-historical value, as a social creature that is different from other living creatures. There is no doubt that the human problem is the main problem in philosophy. This thesis describes the concept of man, the theories of the emergence of man, and the problem of man in the history of philosophy.*

**Аннотация:** *Человек - это, прежде всего, естественно-историческая ценность, как социальное существо, отличающееся от других живых существ. Нет сомнения, что проблема человека является главной проблемой философии. В данной диссертации описываются понятие человека, теории возникновения человека и проблема человека в истории философии.*

**Kalit so'zlar:** *odam, inson, antropologiya, ijtimoiy, shaxs, inson falsafasi, individ, nazariya, gipoteza, konsepsiya, ong, xayol.*

Inson hamma zamonlarda ham o'zining kimligini o'zligini bilishga intilgan. Inson muammosiga bag'ishlangan turli gipotezalar, nazariyalar va konsepsiyalar yaratildi. Lekin zamonlar o'tishi bilan inson deb nomlanuvchi mavjudotda hali o'rganilmagan, yechilishi zarur bo'lgan muammolar, jumboqlar ko'payib boraverdi. Xullas, odamzod uchun o'zi va o'ziga o'xshagan boshqa kishilar, ularning xususiyatlari, jamiyatdagi o'rni, qadri, o'tmishi va kelajagi bilan bog'liq muammolar azalazaldan eng asosiy tadqiqot va kuzatish obyekti bo'lib kelmoqda. Suqrotning «O'zligingni angla», «O'zingni bilsang, olamni bilasan» degan hikmatli so'zlari har bir tarixiy davrda yangicha ahamiyat kasb etadi. Insonda butun olam va jamiyatning mohiyati mujassamlashgandir. Ulug' mutasavvuf Abdulxoliq G'ijduvoni insonni



«kichik olam» deb hisoblagan. Falsafada bahs yuritiladigan barcha masalalar inson muammosiga bevosita daxldordir.

“Inson” tushunchasi va uning falsafiy talqini. . "Inson" tushunchasida ijobiy ma'no yashirin va olimlar aytganday, "inson" etika fani kategoriyasi sifatida ishlatilgani yaxshi. "Odam" tushunchasi "shaxs" va "inson" tushunchalaridan kengroqdir. Bu tushuncha yaqin davrlargacha faqat biologik turga mansublikni ifodalaydigan tushuncha deb hisoblanardi. XIX asrning II yarmidan boshlab, odamga biologik taraqqiyotning mahsuli deb qaralayotgan bo'lsa ham, bu hol undagi ijtimoiy jihatlarni inkor qilmaydi. Odamda biologik va ijtimoiy jihatlarning yaxlit bir butunligi kuzatiladi. Odamning mohiyatini o'rganish, avvalo, uning boshqa turdagi jonzotlardan farqlanuvchi belgilarini aniqlashni taqozo qiladi. Odamni boshqa tirik mavjudotlardan ajratib turadigan belgilar juda ko'p. Lekin ana shu tafovutlar silsilasida shundaylari borki, ular tirik mavjudotlar va odamning mohiyatini belgilab beradi. Insonning jismoniy tuzilishi barcha tirik mavjudotlardagi singari juda murakkab. SHuning uchun uni anatomiya, fiziologiya, biologiya, genetika singari qator fanlar o'rganadi. Lekin odam, boshqa tirik mavjudotlardan farqli o'laroq faqat tabiiy emas, balki tarixiy, ijtimoiy mavjudot hamdir. Uning ijtimoiy sifatlari bilan tarix, iqtisod, germenevtika, evristika, estetika, axloq, psixologiya kabi fanlar shug'ullanadi. Sanab o'tilgan va boshqa bir qator fanlar odamni turli tomondan o'rganadi va turli sifatlarini aniqlaydi. Odamni bir butunlik sifatida o'rganadigan fan antropologiya deyiladi. **Antropologiya** inson mohiyatini, uning tabiat va jamiyatdagi o'rnini, o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish bilan shug'ullanadi. Mazkur fan inson mohiyatini "men", "shaxs", "ong", "ruh" kabi tushunchalar vositasida tahlil qiladi. Odam to'g'risida tabiiy va ijtimoiy fanlarda mavjud ma'lumotlarni to'plash va umumlashtirish, yaxlit nazariya yaratish vazifasini falsafa fani bajaradi.

Ong bog'lovchi, boshlang'ich falsafiy tushuncha sifatida barcha ma'naviy va ruhiy shakllarni o'zida birlashtiradi. Ong-voqelikni aks ettirishning insongagina xos usuli- oily shakli, ijtimoiy in'ikosdir. U inson bilan tashqi voqelikning o'zaro ta'siri natijasi, inson munosabatlarini tartibga solish va boshqarishning o'ziga xos shakli, subyektiv reallikdir.

Ong voqelikni aks etgiribgina qolmay, balki uni yaratuvchisi hamdir.

Ong — ijtimoiy — madaniy, tarixiy hodisadir.

Ong insonning amaliy — o'zgartiruvchilik faoliyati asosida vujudga keladi va rivojlanadi. Ong – tafakkur va borliqning birligidir.

Xayol tabiati murakkab, serqirra bo'lib, fanda hali yetarlicha o'rganilmagan.

Xayol voqelikdan hamisha oldinda yuradi va uni olg'a yetaklaydi. U fazo va vaqtda chegara bilmaydi.



Xayol odam tafakkurida muhim o'rinni egallaydi. Uning turli ko'rinishlari mavjud: tasavvur xayoli, ijodiy xayol, ixtiyoriy va ixtiyorsiz xayol; real va xom (puch) xayol.

XX asr faylasuflari o'zlaridan avval yashab, ijod etgan faylasuflarning "odam aqlli mavjudot", "odam-o'z-o'zini anglay oladigan mavjudot", "odam siyosiy mavjudot" (Aristotel), "mehnat quroli yasovchi xayvon", "barcha ijtimoiy munosabatlar majmui" qabilidagi ta'riflarini inkor qilmadilar, balki yuqori baholadilar. SHu bilan birga ular odamning mazkur ta'riflarda aks ettirilgan sifatlari predmetli amaliy faoliyat bilan bog'liq ekanini ta'kidlab ko'rsatdilar. Odam va jamiyatning paydo bo'lishi bir yaxlit jarayonning ikki tomonidir. Bu jarayonni ifodalash uchun fanda "antroposotsiogenez" atamasi qabul qilingan, Tabiiy va ijtimoiy fanlarda bu jarayon qanday kechganini to'la tushuntirib bera oladigan nazariya hozircha yo'q, ammo bir qator farazlar mavjud.

Odamning paydo bo'lishidagi nazariyalarni (dunyoviy, diniy, materialistik, idealistik va h.k.) shartli ravishda uchga bo'lish mumkin:

- 1.odam yaratilgan (Xudo, mutloq ruh tomonidan);
- 2.odam biologik evolyutsiyaning, tabiiy-tarixiy rivojlanishning mahsuli;
- 3.odam yuqori darajada sivilizatsiyalashgan biror-bir sayyoradan kelib qolgan mavjudot.


Inson to'g'risidagi falsafiy flkrlar taraqqiyoti haqidagi fikr mulohazalarni eslatib o'tishdan muddao barcha zamonlarda ham, barcha zaminlarda ham inson muammosi falsafaning asosiy mavzusi ekanligini e'tirof etishdir. Lekin inson muammosi faqat falsafaning tadqiqot obyekti bo'libgina qolmay, balki boshqa fanlarning ham diqqat markazida bo'ldi. Boshqa fanlar insonning ma'lum

bir' qismini, ayrim xususiyatlarini o'rgangan bo'lsa, falsafa insonni bir butun, yaxlit o'rganishga harakat qildi. Boshqacha aytganimizda, falsafa insonning tabiiy-ijtimoiy mohiyatini, uning olamdagi tirik maxluqotlar orasidagi o'rnini, boshqa jonzotlardan farqini tushuntirishga urindi. Insonning jismi, ruhiyati, ma'naviyati orasidagi o'zaro aloqadorlik mexanizmi mohiyatini ifoda etuvchi qonuniyatlarni aniqlashga intildi. Insonning olamga bo'lgan munosabatini, uning atrof-muhitni, hatto o'zini-o'zi o'zgartira olish yo'llari va uslublarini, o'z taqdirini o'zi belgilovchi

buyuk mavjudot ekanligini har tomonlama tahlil qildi. O'zi haqida, o'zining ruhiy-ma'naviy kamoloti haqida turli g'oyalar, ta'limotlar yaratdi. Turgan gapki, insonning o'zi to'g'risida yaratgan g'oyalari ham zamonlar o'tishi bilan o'zgarib, boyib yoki eskirib bordi.

Demak, yuqoridagilardan xulosa shuki, ong va tafakkur insonga olam va odam, voqea va hodisalar sirlarini bilish, ular bilan bog'liq tushuncha va tamoyillar,





qonunlar va o'ziga xos jihatlar, masala va muammolarni anglash, bu yorug' dunyoda mazmunli hayot kechirish uchun ato etilgan. Insonning biologik va ijtimoiy tabiati haqidagi falsafiy asarlarda jins, jinsiy munosabatlar, erkak va ayol o'rtasidagi farq, avlodlar o'rtasidagi munosabatlar, o'lim muammolari deyarli yoritilmagan. Vaholanki, insonning real hayoti — tug'ilish va o'lish bilan bog'liq biologik vaqt doirasi bilan chegaralangan. Mazkur chegaralarda hayot kontinual va avlodlar o'rtasidagi munosabatlarga ham, jinslar o'rtasidagi munosabatlarga ham bog'liq bo'lgan o'zgarishlarga to'la. Hozirgi zamon falsafasi va fani insonni o'rganishda uning yaxlit ijtimoiy-biologik mavjudot sifatidagi talqinidan kelib chiqadi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Anvar Choriyev Inson falsafasi (birinchi kitob), O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, Toshkent- 2007.
2. O'zbekiston Respublikasi Oliy va O'rta Maxsus Ta'lim Vazirligi Jizzax Davlat Pedagogika Universiteti, Inson falsafasi fanining o'quv dasturi, Jizzax-2022.
3. Falsafiy antropologiya. Inson falsafasi. Larisa Xaydarova Sunnatovna Gumanitar fanlar kafedrasida katta o'qituvchisi. Rajabov Doniyorbek Baxtiyorovich, Yo'ldasheva Shaxnoza Laziz qizi. International scientific-online conference. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7956847>

